Ikramova Taxmina Latifovna	
YANGI RIVOJLANAYOTGAN BOZORLARIDA HR QAROR QABUL QILISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA IQTISODIY TA'LIMNING ROLI	824
Dilfuza Shokirova	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO BUXGALTERIYA STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	833
Abdiev Mutolib Anvar o'g'li	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI	838
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
AKTIVLAR VA MAJBURIYATLARNI MHXS ASOSIDA BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	842
G'anibayev Iloxomjon Shokiraliyevich	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH JARAYONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA HUDUDIIY IQTISODIY RIVOJLANISH BILAN BOG'LIQLIGI	847
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, Turdimuratova Aziza Alisherovna	
AGRAR ISHLAB CHIQUARISHNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA "QISHLOQ XO'JALIGI-4.0" VA "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI" KONSEPSIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	851
Yusupov Muxiddin Soatovich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI GURUHLASH VA BAHOLASH.....	860
Davlyatov Bekzodjon Aslanxojayevich	
TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA XORIY TAJRIBASINING AHAMIYATI	864
Sobirov Shaxzod Ozod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	868
Karimov Mirolimjon Karimjon o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	875
Аликулов С. А., Хамракулова О. Д.	
YASHIL IQTISODIYOTDA KORXONALAR BOSHQARUV MEKANIZMLARINING EVOLYUTSIYASI: KONSEPTUAL TAHLIL.....	880
Nabiev Bobur Muhammadqosim o'g'li	
SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH: JORIY HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	884
Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li	



IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASTERLARNI TASHKIL ETISHNING TASHKILIIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	889
Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	893
Shaymanova Nigora Yusupovna	
XO'JALIK FAOLIYATINI SAMARADORLIGI VA BIZNES HOLATINI BAHOLASH	899
Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
CROSS-BORDER E-COMMERCE IN CENTRAL ASIA.....	904
Bakhtiyorjon Komilov	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY SEKTOR ISHCHILARINING PENSIYA TA'MINOTI MASALALARI.....	908
Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA QOG'OZ SARFINI OPTIMALLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBASI	913
Oripov Mirzo Mahmudovich	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЗАЩИТЕ ВНУТРЕННЕГО РЫНКА ОТ КОНТРАФАКТНОЙ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН).....	917
Ибраимова Махсура Уснатдин кизи	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	922
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON THE PROCESSES OF DIGITAL TRANSFORMATION IN THE INSURANCE INDUSTRY.....	927
D.D.Omonova	
THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS IN THE GLOBAL ECONOMY AND THEIR STAGES OF DEVELOPMENT	933
Yovkochev Sherzod	
YURIDIK SHAXSLARNI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	941
To'raqulov Bekzod Hazratqul o'g'li	
BUTUNJAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LIHDA SOLIQ TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	945
Xojakbar Zaynabidinov	
BANK TIZIMIDA TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	950
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	955
Savurbayev Zafar Abdumuminovich	
INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK OMILLARI VA ULARNING BOSHQARUVI	960
D. G. Bazarov	
YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH	966
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR	971
Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	976
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	981
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	



PUL AYLANMASINI TASHKIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI.....	987
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
MARKETING VA TOVAR STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	993
Ibadullayeva Sevara Allashukurovna, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
PILLACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA DAVLAT KO'MAGIGA OID METODOLOGIK YONDASHUVLAR	998
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI	1005
Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEXTILE PRODUCTS MARKET SEGMENTATION	1012
Ibaydullaeva Feruza Kholjuraevna	
O'ZBEKISTONNING JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH TIZIMIGA SUN'YI INTELLEKTNI INTEGRATSIYASI: BANK SEKTORIDA JORIY ETISHNING POTENSIALI VA TO'SIQLARINI BAHOLASH	1018
Rashidov Avazbek Raximovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1025
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEKANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anjonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	



BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT- KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti, 1-kurs magistranti

E-mail: hasanboyhaydarovv@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi jadal rivojlanib borayotgan raqamli davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) tashkilotlar faoliyatida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar natijalari AKTning nafaqat ichki boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda, balki xodimlar, mijozlar, investorlar va jamiyat bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishda muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi. Kompaniyalar raqamli platformalardan foydalanish orqali ochiqlik, tezkorlik, axborot almashinuvi, innovatsion yondashuv va raqobatbardoshlik darajasini yanada oshirib borishlari mumkin. Shundan kelib chiqib, AKT korporativ kommunikatsiyalarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), aloqa boshqaruvi, kompaniya, raqamli texnologiyalar, axborot tizimi, investor, veb-sayt.

Abstract. In today's rapidly developing digital era, Information and Communication Technologies (ICT) are gaining strategic importance in organizational activities. Recent research findings confirm that ICT not only optimizes internal management processes but also plays a crucial role in establishing effective cooperation with employees, customers, investors, and society. Digital platforms contribute to transparency, efficiency, information exchange, innovative approaches, and improving competitiveness within companies. Therefore, ICT is emerging as a decisive factor in enhancing corporate communication management mechanisms.

Key words: Information and Communication Technologies (ICT), communication management, company, digital technologies, information system, investor, website.

Аннотация. В современную стремительно развивающуюся цифровую эпоху информационно-коммуникационные технологии (ИКТ) приобретают стратегическую значимость в деятельности организаций. Результаты современных исследований подтверждают, что ИКТ не только оптимизируют внутренние процессы управления, но также играют важную роль в создании эффективного взаимодействия с сотрудниками, клиентами, инвесторами и обществом. Использование цифровых платформ способствует повышению прозрачности, оперативности, обмену информацией, инновационному подходу и конкурентоспособности компаний. Следовательно, ИКТ выступают решающим фактором в совершенствовании механизмов управления корпоративными коммуникациями.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), управление коммуникациями, компания, цифровые технологии, информационная система, инвестор, веб-сайт.

KIRISH

Zamonaviy raqobat sharoitida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar o'z biznes jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) strategik ahamiyatini chuqur anglab bormoqda. AKT bugungi kunda nafaqat yordamchi vosita, balki kompaniyalar samarali faoliyat olib borishi va raqobat ustunligini shakllantirishi uchun mustahkam asos sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'minot zanjiri boshqaruvi, marketing, mijozlarga xizmat ko'rsatish, korporativ boshqaruv va boshqa jarayonlarda AKT qulaylik, tezkorlik, shaffoflik hamda ma'lumotlarning sifatli tahlil qilinishiga zamin yaratadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, innovatsion boshqaruv yondashuvlarini joriy etish va bozor talablariga moslashuvchanlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.



Bundan tashqari, AKT elementlarining korporativ boshqaruv tizimiga integratsiyalashuvi kompaniyalarga ichki va tashqi kommunikatsiyalarni yanada samarali tashkil etishga imkon beradi. Raqamli platformalar orqali xodimlar o'rtasida tezkor axborot almashinuvi, mijozlarni jalb etuvchi interaktiv xizmatlar, investorlar bilan ochiq muloqot kanallari va biznes-jarayonlarning real vaqt rejimida monitoringi yo'lga qo'yiladi. Ushbu omillar kompaniyaning bozorga moslashuvchanligini kuchaytirib, korporativ madaniyat va strategik qarorlarni qabul qilish jarayonlarini optimallashtiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsion texnologiyalarni (AKT) joriy etish korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligi, raqobatbardoshligi va innovatsion rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri sifatida ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Shodmonov va G'ofurov (2010-y.) AKTni iqtisodiy jarayonlarning asosiy harakatlantiruvchisi sifatida baholagan holda, raqamli texnologiyalar boshqaruvda tezkor axborot almashinuvi va qaror qabul qilish mexanizmlarini optimallashtirishini ta'kidlaydi. O'lmasov va Vahobov (2014-y.) AKTning iqtisodiyotdagi transformatsion ta'sirini o'rganib, raqamli infratuzilma mavjud bo'lgan tashkilotlarda mehnat unumdorligi va mahsuldorlik darajasi sezilarli ravishda oshishini qayd etgan.

Tadqiqotchilar Yo'ldoshev va Rashidov (2021-y.) boshqaruv tizimida raqamlashtirish jarayonlarining tadqiqot usullarini yoritgan holda, AKTdan foydalanish boshqaruv subyektlariga aniq statistik ma'lumotlar asosida strategik qarorlarni qabul qilish imkonini berishini ilmiy asoslab beradi. Shu bilan birga, Ziyavitdinova va hamkorlar (2012-y.) zamonaviy menejmentning asosiy komponenti sifatida kommunikatsion texnologiyalarni alohida o'rganib, CRM, ERP, SCM kabi raqamli tizimlar korxonalarning ichki boshqaruv va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishini tasdiqlaydi.

Xalqaro adabiyotlar ham mazkur qarashlarni qo'llab-quvvatlaydi. Wurishe (2021-y.) boshqaruv tizimlari nazariyasini o'rganish jarayonida raqamli texnologiyalarni "yangi avlod boshqaruvi vositasi" sifatida talqin qiladi va axborot texnologiyalarining biznes subyektlari o'rtasida ochiq ma'lumotlar almashinuvi, masofaviy monitoring va xavfsiz axborot tizimlarini shakllantirishdagi rolini asoslaydi. Porsaev va hamkorlari (2020-y.) esa raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi korxonalarda nafaqat texnologik, balki boshqaruv madaniyati, mijozlar bilan o'zaro munosabatlar, logistika va xizmat ko'rsatish modellari evolyutsiyasiga ham olib kelishini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, AKT korxona boshqaruv tizimining ajralmas komponentiga aylanib borayotgan bo'lib, u boshqaruv samaradorligini oshirish, raqamli innovatsiyalarni joriy etish, mijozlar bilan aloqalarni yaxshilash, iqtisodiy natijadorlikni kuchaytirish va strategik raqobat ustunligini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyan bo'lmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda iqtisodiy-statistik usullar, taqqoslash va solishtirish, ilmiy abstraksiyalash, tanlanma kuzatuv usullari, prognozlashtirish va boshqa ilmiy tahlil vositalaridan foydalanildi. Ushbu usullar korxonalar faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilish samaradorligini aniqlash, ularning boshqaruv tizimiga ta'sirini baholash hamda raqamli transformatsiya jarayonlarining natijalarini iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, tadqiqot davomida rasmiy statistik ma'lumotlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan tahliliy hisobotlar, ilmiy maqolalar va davlatning raqamli rivojlanish strategiyalari o'rganildi. Empirik ma'lumotlardan foydalanish natijalarni yanada ishonchli qilish, amaliy xulosalar chiqarish va boshqaruv tizimida AKTni samarali tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishga imkon berdi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) korporativ boshqaruvga joriy etilishi kompaniyalarga odatiy vazifalarni avtomatlashtirish, ma'lumotlarning aniqligini oshirish hamda qaror qabul qilish jarayonlarini tezkor va ilmiy asosda amalga oshirish imkonini beradi. Raqamli platformalar orqali mijozlar bilan o'zaro aloqalarni kuchaytirish, ularning ehtiyojlarini tahlil qilish, shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taklif qilish va mijozlar sadoqatini oshirish bugungi biznes menejmentining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Raqamli texnologiyalar operatsion xarajatlarni optimallashtirishda, biznes jarayonlari samaradorligini oshirishda va resurslarni oqilona taqsimlashda muhim rol o'ynaydi. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari vaqt va budjetni tejashga, mahsulot va xizmatlar sifati ustidan real vaqt monitoringini yo'lga qo'yishga hamda ichki va tashqi hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu esa turli geografik hududlarda faoliyat yuritayotgan xodimlar va hamkorlar o'rtasida tezkor axborot almashinuvi hamda masofadan turib samarali ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada, AKTni oqilona qo'llagan kompaniyalar bozordagi o'zgarishlarga tez moslashadi, innovatsion yechimlarni joriy etadi va raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.



Amerika Axborot Texnologiyalari Assotsiatsiyasi (ITTA) axborot texnologiyalarini axborot tizimlarini loyihalash, tadqiq qilish, joriy etish, qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqish va boshqarishni o'rganuvchi fan sohasi sifatida ta'riflaydi. Mazkur texnologiyalar kompyuter uskunalari va dasturiy ta'minotga tayanadi, biroq faqat elektron aloqa vositalaridan foydalanish bilan cheklanmaydi. Aslida, AKT ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash, himoyalash va o'zgartirish imkonini beruvchi dasturiy va texnik vositalar majmuasi sifatida talqin qilinadi. Shundan kelib chiqib, AKT kompaniyalar boshqaruv mexanizmlarida innovatsion transformatsiyaning asosiy omili sifatida namoyon bo'lmoqda (1-rasm).



1-rasm. Namangan viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha chakana savdo aylanmasi (mlrd so'm)¹

Stiv Jobs texnologiyani inson hayotini qulaylashtirishga xizmat qiladigan vosita sifatida talqin qilgan. Unga ko'ra, texnologiya va gumanitar fanlar (san'at, dizayn, ijod) uyg'unlashganda haqiqiy innovatsiyalar yaratiladi. Jobs inson uchun texnologiya emas, balki texnologiya uchun inson emas, balki insonning ehtiyojlari asosiy mezon bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. Uning fikricha, mahsulot yaratishda foydalanuvchi tajribasi markazda turishi lozim, ya'ni jarayon texnik yechimlardan emas, balki "inson nimani xohlaydi?" degan savoldan boshlanishi kerak. Shu falsafa qulay, estetik va funksional mahsulotlar yaratish orqali katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkinligini ko'rsatadi (Stiv Jobs, 2023-y.).

Namangan viloyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chakana savdo aylanmasining yillar davomida ijobiy o'sishiga xizmat qilgan. 1-rasmdagi ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda ko'rsatkich 15 311,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu raqam 19 687 mlrd so'mgacha oshgan. 2023-yilda qisqa muddatli pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, 2024-yilda iqtisodiy faollik tiklanib, savdo hajmi 25 185,7 mlrd so'mga yetgan. 2025-yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan biroz pasayish qayd etilgan bo'lsada, umumiy tendensiya bozorning barqaror tiklanish salohiyatiga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Hozirgi globallashuv va kuchli raqobat sharoitida chakana savdo subyektlarining barqaror rivojlanishi ularning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan qay darajada samarali foydalana olishlariga bevosita bog'liq. O'zbekiston bozorida hozirda 1 000 dan ortiq turli shakldagi chakana savdo do'konlari faoliyat yuritmoqda. Ularning faoliyatini avtomatlashtirish, raqamlashtirish va yagona boshqaruv tizimiga integratsiya qilish savdo aylanmasi, mijozlar oqimi hamda xizmat sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda Korzinka, Makro, Havas, Bi1, Baraka Market kabi yirik savdo tarmoqlari axborot texnologiyalarini faol qo'llab, yuqori daromad, barqaror mijozlar oqimi va operatsion samaradorlikka erishib kelmoqda. Ularning tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT chakana savdoning har bir bo'g'inida — zaxiralarni boshqarish, logistika, marketing, mijozlar bilan ishlash va xizmat sifatini nazorat qilishda hal qiluvchi rolga ega.

Kompyuter texnologiyalari rivojlanishi jamiyatda tezkor axborot almashinuvi, innovatsion mahsulot va xizmatlar yaratish, shuningdek, iste'molchilarning ehtiyojlariga mos yechimlar ishlab chiqishni jadallashtirmoqda. Axborot inqilobi natijasida ko'plab og'ir va murakkab jarayonlar soddalashtirilmoqda. Masalan, sanoat infratuzilmasidagi axborot tizimlarini takomillashtirish temir yo'l va avia chiptalarini xarid qilish vaqtini bir necha

¹ Muallif ishlanmasi.



kundan yoki soatlardan atigi bir necha daqiqagacha qisqartirdi. Virtual reallik (VR) texnologiyalari esa innovatsion mahsulotlar haqidagi ma'lumotlarni butun dunyoga bir necha soniyada yetkazish imkonini bermoqda. Demak, axborot texnologiyalari inqilobi iqtisodiyotning barcha sohalariga keng ko'lamli ta'sir ko'rsatib, inson faoliyatini yanada samarali, qulay va innovatsion yo'nalishda rivojlantirmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) zamonaviy tashkilotlarda kommunikatsiyalarni boshqarishda strategik ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar korxonalarda axborot almashish jarayonlarini tubdan modernizatsiya qilib, tezkor, ishonchli va samarali muloqot imkoniyatlarini yaratadi. AKT asosida korxonalar biznes jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qiladi, muammolarni aniqlaydi va operativ hamda strategik qarorlarni aniq va asosli ravishda qabul qilish imkoniga ega bo'ladi.

Jarayonlarni avtomatlashtirish, raqamli axborot tizimlarini joriy etish va ma'lumotlarni tizimli boshqarish operatsion samaradorlikni oshiradi, mehnat unumdorligini ko'paytiradi hamda korxona xarajatlarini optimallashtiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar axborot xavfsizligini ta'minlab, tashkilotning ma'lumotlar bazasini ishonchli himoya qilish va samarali boshqarish imkonini beradi.

AKTning mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM tizimlari)dagi o'rni alohida ahamiyatga ega. Ushbu tizimlar mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, ularga individual xizmat ko'rsatish, ehtiyojlarini oldindan prognozlash va mijozlar sadoqatini oshirish imkonini yaratadi. Natijada, kichik biznesdan tortib yirik korporatsiyalargacha bo'lgan barcha xo'jalik subyektlari uchun barqaror raqobat ustunligi shakllanadi.

Umuman olganda, AKT tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni, ichki boshqaruv tizimini hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish mexanizmlarini optimallashtiruvchi, biznes o'sishi va innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydigan strategik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shodmonov Sh., G'ofurov U. **Iqtisod nazariyasi**. – Toshkent: *Iqtisod-moliya*, 2010-y.
2. Sharifxo'jayev M., Abdullayev Y. **Menejment**. – Toshkent: *O'qituvchi*, 2001-y.
3. Yo'ldoshev N. Q., Rashidov J. X. **Menejment tadqiqot usullari**. – Toshkent, 2021-y.
4. O'lmasov A., Vahobov A. **Iqtisodiyot nazariyasi**. – Toshkent: *Iqtisod-moliya*, 2014-y.
5. Ziyaviddinova N. M., O'rinov Y. M., Xayitov Sh. N. **Menejment**. – Toshkent: *Tafakkur-Bo'stoni*, 2012-y.
6. Yo'ldoshev N. Q., Nabokov V. I. **Menejment nazariyasi**. – Toshkent, 2013-y.
7. Kambarov J. X., Ruziev Sh. R., Xursanaliyev B. F. **Sifat menejmenti**. – Toshkent, 2022-y.
8. Hojiahmedov G', Yaxyayeva I., Umarova M., Usmonov A. **Sifat menejmenti**. – Toshkent, 2012-y.
9. Issah Yakubu Wurishe. **Management systems theory: A practical approach**. – GSJ, 2021-y.
10. Porsaev G'. M., Safarov B. Sh., Usmanova D. Q. **Raqamli iqtisodiyot asoslari**. – Toshkent, 2020-y.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
